



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

5(22)

2025





ISSN 2181-3787
E-ISSN 2181-3795

“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»
международный научно-методический журнал

“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”
international scientific-methodical journal

№5(22) 2025

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 -
tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha
dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan
zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

MUNDARIJA

TARIX..... 8

Tuyev Fazliddin Erkinovich. Navoiy, Samarqand va Buxoro viloyatlarida investitsion jozibadorlik: 2017-2023 – yillar misolida.....	8
Axmadov Amonkeldi. Tarixni o'rganishda sun'iy intellektning roli.....	14
Ochilov Alisher To'lis o'g'li, Xurramov Abror Rustam o'g'li. Poykent va Varaxshaning arxeologik o'rganilishi (XX asrning 30-40 – yillari misolida).....	17
Orziyev Mahmud Zayniyevich, Ergashev Avaz Amon o'g'li. Buxoro amirligi hududida temir yo'llarning qurilishi va ahamiyat xususida.....	21
Boltayev Bobir Baxtiyorovich. Ta'lim sohasidagi muzeylar nufuzining yanada ortishi (Buxoro misolida).....	26
Bobojonova Feruza Xayatovna. Buxoro oblastida sovet maktabi masalalarining matbuotda yoritilishi.....	29
Yuldosheva Bibirajab. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik davridagi atmosfera havosini muhofaza qilish siyosatining tarixiy tahlili	35
Baxtiyorov Behruz Bobirovich. Yurtimizdagi dastlabki qishloq manzilgohlarining shakllanish jarayonlari.....	42
Sultonova Nigina. Buxoroda ishlab chiqarilgan matolar	45
Shamsiyeva Zilola Askarovna. Jadidlarning marosimlarga oid fikr-mulohazalari xususida.....	48
Axmadov Amonkeldi, Ziyodulloyeva Parvina. ikki qutbli dunyoda German davlatlarining taqdiri (1945–1990 yy.)	53
Sirojov Ochil Sirojovich. Fashizmga qarshi urush yillarida O'zbekiston engil va mahalliy sanoatning harbiy izga ko'chirilishi.....	57
Sharipova Parizod Quvvatjon qizi. Mustaqillik yillarda o'zbek xonliklarining tarixini o'rganilishi	62

ANIQ FANLAR..... 67

Xojiyev Baxodir Istamovich, Berdiqulova Marjona Murod qizi. Fizikaning "fotometriya qonunlari" bo'limidan masalalar yechish metodikasini rivojlantirish.....	67
Qurbonov G'ulomjon G'afurovich, Baxronova Sayyora Botir qizi. Ta'lim jarayonida raqamli platformalarning integratsiyasi: amaliy yondashuvlar.....	72
Mirzayev Tolibjon To'raqul o'g'li. Generativ sun'iy intellekt yordamida xavfsiz kod yozish kompetensiyasini shakllantirish.....	77
Raupova Iroda Barakayevna. Methodological foundations of using the credit-module system in teaching physics.....	81
Ochilova Laylo Temirovna. Determinantlar va ularning xossalarini o'rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.....	84
Jamolova Shahlo Qobilovna, Ravshanova Shaxlo Erkinovna. Talabalarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili	90

FILOLOGIYA 94

Xalilova Ruksora Raupovna. O'qituvchining individual nutq uslubini rivojlantirishni tashkil etish nazariyasi.....	94
Hojiyeva Gulchehra Salimovna. Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining xorijiy tillardagi kreativ kompetentligini oshirish texnologiyalari ("Règles de la politesse française" mavzusi misolida).....	97
O'rinova Maftuna No'mon qizi. Oxunjon Safarov – bolalar folklorining areal tadqiqotchisi	106

PEDAGOGIKA.....109

Mustafayev Baxtiyor. Maktab musiqiy-pedagogik jarayonida o'qituvchining kasbiy mahorati	109
Mamatqulova Kimyoxon Abdujalilovna. Oliy ta'lim muassasalari kafedra mudirlari faoliyatida subordinatsiya omilining ijtimoiy-psixologik ahamiyati.....	112
Axrarov Ixtiyor. Jadidlar harakatining ilm-fan, ta'lim va matbuot yo'nalishlaridagi islohotlari	117
Ishankulova Komila Kurbanovna. Talaba-yoshlarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasini takomillashtirish	121
Yadgorov Nodir Djalolovich, Davlatova Aziza. Badiiy tahlilni o'qitish jarayonida o'quvchilarning emotsional qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish.....	126

Baxtiyorov Behruz Bobirovich

Buxoro davlat universitetining
arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası tayanch doktoranti,
islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası o'qituvchisi

YURTIMIZDAGI DASTLABKI QISHLOQ MANZILGOHLARINING SHAKLLANISH JARAYONLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada insoniyatning eng qadimiy aholi manzillaridan biri hisoblangan qishloq turar-joylarining shakllanishi omillari to'g'risida hamda qishloqlarning rivojlanish jarayonlari to'g'risidagi ma'lumotlar ilmiy maqola va asarlar asosida tahlil qilishga harakat qilingan. Shu bilan birgalikda, vatanimiz tarixida qishloq manzillarining tutgan o'rni va ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Qishloq, ovchilik, chorvachilik, neolit, irrigatsiya, urug', quldorlik, relef, shahobcha, hunarmandchilik, sug'orma dehqonchilik, sivilizatsiya, mehnat taqsimoti, formatsiya.

ПРОЦЕССЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПЕРВЫХ СЕЛЬСКИХ ПОСЕЛЕНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ НАШЕЙ СТРАНЫ

Аннотация. В этой статье предпринимается попытка проанализировать факторы формирования сельских населенных пунктов, которые являются одними из самых древних человеческих обитателей, а также процессы их развития на основе научных статей и произведений. Одновременно раскрывается место и значение деревенских населенных пунктов в истории нашей страны.

Ключевые слова: Деревня, охота, скотоводство, неолит, орошение, семя, рабство, рельеф, шахабча, ремесла, орошаемое земледелие, цивилизация, разделение труда, формация.

THE PROCESSES OF FORMATION OF THE FIRST RURAL SETTLEMENTS ON THE TERRITORY OF OUR COUNTRY

Annotation. This article attempts to analyze the factors behind the formation of rural settlements, which are considered one of the oldest human habitats, as well as the processes of rural development based on scientific articles and works. At the same time, the role and importance of rural settlements in the history of our homeland are revealed.

Keywords: Village, hunting, animal husbandry, Neolithic, irrigation, seed, slavery, relief, comet, craftsmanship, irrigated agriculture, civilization, labor division, formation.

Kirish. Insoniyat tarixida eng muhim bosqichlardan biri bu doimiy yashash manzillarining, ya'ni qishloq manzilgohlarining shakllanishidir. Bu jarayon insoniyat taraqqiyotining neolit davrida, ya'ni dehqonchilik va chorvachilikka o'tish bilan bog'liq holda boshlangan. Dastlabki qishloqlar bugungi sivilizatsiyalarning negizini tashkil etgan. Ular faqatgina turar joy emas, balki ijtimoiy munosabatlar, xo'jalik faoliyati, madaniy hayot va diniy e'tiqodlar markaziga aylangan. Qishloq aholisi, asosan, dehqonchilik, chorvachilik va qishloq xo'jaligining boshqa sohalarida band bo'lgan aholi manzilgohi bo'lib hisoblanadi.

Qishloq faqat aholisining mashg'uloti bilan emas, balki ijtimoiy-iqtisodiyoti, madaniyati, turmush tarzi bilan ham shahardan farq qiladi. Shu bois qishloqlar tarixan katta-kichik bo'lgan, turar joylar ham shunga qarab joylashgan. Shuning uchun ham bunaqa hududlarda istiqomat qilagan insonlar asosan, dehqonchilik, bog'dorchilik bilan shug'ullangan[1].

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, qishloq manzilgohlarining paydo bo'lishi neolit inqilobi - insoniyatning ovchilik va termachilikdan dehqonchilik va chorvachilikka o'tish davri bilan bog'liq. Bu jarayon taxminan miloddan avvalgi X-VIII mingyilliklarga to'g'ri keladi. O'sha davrda yashovchi jamoalar ko'chmasdan, muayyan hududlarda muqim yashashni boshladilar. Doimiy yashash joylarining paydo bo'lishi esa birinchi qishloq manzilgohlarining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Dunyodagi eng qadimgi qishloq manzilgohlaridan biri bu Katalhoyuk manzilgohidir (Turkiya). Qishloq taxminan miloddan avvalgi 7500 - 5700 yillarda mavjud bo'lgan. Katalhoyuk qishlog'i aholisi loydan tayyorlangan uylar qurib, ularni bir-biriga yopishtirgan holda joylashtirgan. Ya'ni ko'p xonali uylar qurishni boshlashgan. Yana bir qadimiy

aholi manzillaridan biri bu hozirgi Falastin hududidagi Jericho qishlog'i hisoblanadi. Arxeologik topilmalar bu joyda miloddan avvalgi 9000-yillarda doimiy yashash manzilgohlari bo'lganligini ko'rsatadi. E'tiborli tomoni bu yerda himoya devorlari, minoralar mavjud bo'lgan bo'lib, ijtimoiy tuzilmaning shakllana boshlaganidan darak beradi. Iordaniya va Ummon hududlaridagi Ayn-Ghazal qishlog'i ham neolit davriga mansub bo'lib, miloddan avvalgi 7250-yillarda mavjud bo'lgan. Y a'ni X- mingyillik tarixga ega hisoblanadi. Bu yerda topilgan g'ishtli uylar, ibodatxonalar va kishilarning haykalchalari o'sha davr kishilarining diniy e'tiqodi va ijtimoiy hayotidan dalolat beradi. Bu hududlar aslida o'sha davr ovchilarining ilk makonlari edi. Yurtimizdagi Jarqo'ton manzilgohi ham qadimiy aholi turar-joylaridan bo'lib, mil.avv II-ming yillikning ikkinchi yarmiga oiddir. Sherobod tumani (Sherobod daryo irmog'i Bo'stonsoy o'zanining chap sohili) da joylashgan. Jarqo'ton aholisi sug'orma dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Bu hudud maydoni 100 ga bo'lib, mudofaa devori bilan o'ralgan markaziy qo'rg'on, otashparastlar ibodatxonasi, qabriston (maydoni 20 ga), bir necha dahalardan iborat bo'lgan. Jarqo'tonda turar joy qoldiqlari, ibodatxona, kulolchilik mahallasi, metall eritiladigan ustaxonalar, 1000 dan ortiq qabrlar ochib o'rganildi[2]. Sopollitepa va Jarqo'tonda hunarmandchilikning turli tarmoqlari yuksak rivojlangan. Bu yerda ayniqsa kulolchilik, metallurgiya, to'qimachilik, amaliy san'at, uy-joy qurilishi sohalari bo'yicha ixtisoslashish jarayoni yuqori darajada bo'lganligi yaqqol ko'zga tashlanadi[3]. Odamlar asta sekin dehqonchilik bilan shug'ullanib, o'troqlik davriga o'tgach, qishloqlar ko'paydi va kengaydi. O'rta Osiyoda neolit davri aholi manzilgohlaridan biri hisoblanadigan Navoiy viloyatining Uchtut manzilgohi ham muhim aholi manzillaridan hisoblanadi. Chunki ular shaxta yo'li bilan xom-ashyo olish usulini ixtiro qiladilar. 1960- yilda arxeolog Yahyo G'ulomov Uchtut manzilgohida mehnat qurollari yasash uchun juda boy xom-ashyo markazini ochdi. Uchtutda 100 dan ortiq shaxtaning o'rni ochib o'rganilgan. Bundan shular ayon bo'ladiki, Aholi ovchilik, termachilikdan tashqari dehqonchilik va chorvachilikda katta yutuqlarga erishishgan. Ibtidoiy jamiyat davrida shakllangan urug' birlashmalari o'troqlik davrida ham saqlanib, bir urug' bir qishloqqa o'rnamagan. Hozirgi ayrim qishloqlar o'sha urug' nomi bilan ham yuritiladi. Keyinchalik urug'larning qabilalarga birlashishi natijasida yirik yoki bir-biriga yaqin joylashgan qishloqlar paydo bo'ldi. Kenagas, Mang'it, Nayman, Miton va boshqa quldorlik davrida ko'p mamlakatlarda quldorlarning yerlarida ishlaydigan kishilarning bir joyga o'rnamagishi bilan ham qishloqlar paydo bo'lgan[4]. Bu qishloqlar shu yer egasining nomi bilan yoki joyning geografik holatiga qarab atalgan. Hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi bilan ham yangi qishloqlar vujudga kelib, kengayib bordi. Karvon yo'llarida, daryolarning kechuv joylarida ham qishloqlar yuzaga kelgan: Yettikechuv, Qizilkechuv, Qorakechuv, Langan va boshqalar. Hunarmandchilik va savdo rivojlanib, dehqonchilikdan ajralib chiqqan boshlagach, shaharlar yuzaga keldi. Ilk ijtimoiy formatsiyalarda aholining ko'pchiligi qishloqlarda yashaganligi uchun jamiyatning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy xususiyatlari qishloq hayoti bilan belgilangan. Dastlabki davrlarda qishloq jamoa boshlig'i, keyinchalik saylanadigan jamoa oqsoqoli yoki jamoa yig'ini tomonidan boshqarilgan. Qishloqlarning tashqi ko'rinishi, qurilishi ham davrdan-davrga o'zgarib borgan. Masalan, Xorazm hududida, Sug'dda V-VII- asrlarda yangi tipdagi qishloqlar, katta-katta boy oilalar yashaydigan qasr-qo'rg'onlar bo'lgan, oddiy dehqonlar esa mayda qo'rg'onchalarda yashardilar. Har bir qasr-qo'rg'onning atrofi mudofaa devori bilan o'ralgan bo'lib, o'rtasida ko'shki bo'lgan. Temuriylar davrida hozirgi O'rta Osiyo hududida qishloqlarni obodonlashtirishga, ariq va kanallar qazib, bog'u-ro'g'lar barpo qilishga ahamiyat berilgan. Qishloqlardagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayot tarzi tubdan o'zgarib, so'nggi davrda qishloqlar kamayib, shaharlar salmog'i ortib bordi. Hozirda qishloq aholisi jahon aholisining qariyb 53% ni tashkil etadi.

Qishloq joylarni o'rganishda ular joylashgan hududning tabiiy geografik sharoitiga alohida e'tibor bermoq lozim. Xususan, joyning iqlim sharoiti, relefi, suv va tuproq resurslari, o'simlik dunyosi kabilar muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda aksariyat qishloqlar gidrologik shahobchalar bo'yida yoki ularning quyi qismida tarixan shakllangan. Soylar, daryolar, suv omborlari va irrigatsiya kanallari qishloqlar geografiyasini ko'p jihatdan belgilab beradi. Soylar yoymasi va ulardan tarqalgan kanallar (ariqlar), ko'p qo'l mehnati talab qiluvchi sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi asosida yirik qishloqlar vujudga kelgan. Bunga Farg'ona vodiysi soylari, ayniqsa, So'x va Isfara daryolari quyi qismida tashkil topgan qishloqlar misol bo'la oladi. Qishloqlar ko'pincha tepaliklarda, tog' etaklarida joylashgan. Qishloqlarning shakllanishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan:

- **Iqlim:** Ilk qishloqlar issiq va mo'tadil iqlimli hududlarda vujudga kelgan.
- **Suv resurslari:** Sug'orish imkoniyati qishloq xo'jaligining barqarorligini ta'minlagan. Chunki aholining asosiy tirikchiligi va daromadi asosan dehqonchilik va chorvachilikdan kelgan.
- **Hayvon va o'simliklarning boyligi:** Ekin ekish va chorvachilik qilish uchun qulay maydonlarning mavjudligi,

• **Ijtimoiy ehtiyojlar:** Aholining ko'payishi, resurslar ustidan nazorat, diniy markazlarning shakllanishi qishloq tuzilishini murakkablashtirgan.

Bu qishloqlarda odamlar jamoa bo'lib yashagan. Ular mehnatni taqsimlashgan - kimdir dehqonchilik bilan, boshqalar esa chorvachilik, hunarmandchilik yoki diniy marosimlar bilan shug'ullangan. Diniy hayot muhim o'rin tutgan: ibodatxonalar, diniy haykallar va dafn marosimlari madaniy taraqqiyotdan dalolat beradi. Shuningdek, bu qishloqlarda san'atning ilk ko'rinishlari ya'ni devoriy rasmlar, haykalchalar, naqshinkor buyumlar topilgan. Bu esa inson tafakkuri va estetik didining mazkur davrlardam boshlab ancha rivojlanganligini ko'rsatadi. Qishloqlarning rivojlanishi natijasida aholining soni ortdi, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar murakkablashdi. Bu esa shaharlar, davlatlar va sivilizatsiyalarning shakllanishiga zamin yaratdi. Masalan, Mesopotamiyada miloddan avvalgi 4-ming yillikda Uruk, Ur kabi ilk shaharlar vujudga keldi[5]. Qishloqlar shaharlarga qaraganda aholi yashash joyining qadimiyroq shaklidir. Shu nuqtai nazardan Sharq tarixi, madaniyatini qishloq va shaharlarning ajralmas birligi deb ta'riflashgan[6]. Bizning sharoitimizda qishloqlar "qishlov" ma'nosini anglatadi. Chunki, yaqin o'tmishda ham mahalliy xalq yozgi va kuzgi dala ishlarini (bog'dorchilik, chorvachilik, dehqonchilikni) tugatgach, qishni yig'ilgan don, meva, o'tin va boshqa zaruriy mahsulotlar bilan o'tkazish uchun qishloqlarga qaytishgan. Qishloq joylar yoki qishloqlar asosan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi aholining hududiy tashkil etish shakli ekan, u mohiyatan geografiya, xususan iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ammo e'tirof etish zarurki, qishloqlar hozirgi kunda "omadi kelmagan" yo'nalish bo'lib, ular shaharlarga qaraganda juda oz o'rganilgan[7].

Hozirgi kunda qishloqlar umumiy bir markazga - qishloq fuqarolik yig'inlariga ega bo'lgan, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan bir-biriga uzviy bog'langan kichik aholi manzilgohlariga ham bo'linishi mumkin. Ular O'zbekistonda mahallalarga ajraladi. Qishloq kishilarning ijtimoiy va tarixiy tarkib topgan birligidir. O'zbekiston qishloqlaridagi aholi salmog'i ortmoqda. Buning asosiy sababi qishloqlarda aholining takror barpo bo'lish jarayonining shaharlardagiga nisbatan bir qadar jadal kechishidadir. 1970 - 1990-yillarda O'zbekiston aholisining 60 foizi qishloqlarda yashagani ham fikrimizni isbotlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Yer yuzida paydo bo'lgan ilk qishloq manzilgohlari insoniyat tarixida muhim o'rin egallaydi. Ular nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy hayotning rivojlanishida, balki madaniy, diniy, me'moriy taraqqiyotda ham asosiy rol o'ynagan. Bu manzilgohlar orqali biz insoniyatning dastlabki qadamlari, jamoaviy yashash shakli, mehnat taqsimoti, diniy e'tiqodlari haqida muhim ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Ularning o'rganilishi kelajak avlodlar uchun ham qadimiy tariximizni anglashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 176-178bet.
2. S.N.Djuraeva, I.S.Usmonov, A.M.Kurbonov, L.K.Azimova. *Surxondaryo tarix sahnasida* (o'zbek). O'zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022. 288-bet.
3. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 2019. 172 - бет.
4. G'ulomov Ya.O'zbekistonda arxeologiya.T.1956.37-38 bet.
5. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik. - T.: "Fan va texnologiya", 2014.-368 b.
6. A.Soliyev, M.Nazarov O'zbekiston qishloqlari.T-2009
7. Bo'rieva M.R., Tojjeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan. – T.: Tafakkur, 2011. – 159 b.